

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Jild 3, Son 6/S
2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 5/6 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в.б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамрокулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемурастов Махмут Ажимурастович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодиля Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Ҳайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яққасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

Телеграм канал:

https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Мамаражабов Бобир Нормўмин ўғли

САУДИЯ АРАБИСТОНИДАГИ ЎЗБЕК МУҲОЖИРЛАРИ ТАРИХИ: МУВАФФАҚИЯТЛИ
АССИМИЛЯЦИЯ ВА ЙЎҚОТИЛГАН МИЛЛИЙ ИДЕНТИКЛИК8-17

Хайдаров Абдулҳоди Ахмадали ўғли

XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИДА ФАРҒОНА ВИЛОЯТИДА БОҒДОРЧИЛИК ВА
ТОМОРҚАЧИЛИКДАГИ ЎЗГАРИШЛАР 18-22

Назаров Азизбек Ёқубжонович

ТУРКИСТОН ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРЛИГИДА ИЛМИЙ ЖАМИЯТЛАР: ТАРИХШУНОСЛИК
ТАҲЛИЛИ 23-31

Abdulloyev Jamshed Izzatulloevich

MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA CHEGARA VA SUV MUAMMOLARINING VUJUDGA
KELISH ASPEKTLARI VA BUGUNGI RIVOJLANISH BOSQICHI 32-36

Пасилов Баҳодир Абдуллаевич

ЎЗБЕКИСТОН ССРДА СОВЕТ ИҚТИСОДИЁТИ АСОСЛАРИ ШАКЛЛАНИШИНИНГ АЙРИМ
МАСАЛАЛАРИ (1917-1937 йй.) 37-41

Ismailov G'afurjon Xasanovich

TURKIYADAGI O'ZBEK TEKKE (TAKIYA)LARIDAN BIRI "SULTONTEPA TEKKESI"
MUSOFIRLAR UCHUN TUTGAN O'RNI 42-46

Raxmatulloyev Murodjon Xikmatulloyevich

BUXORO VILOYATIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHGA
OID ISLOHOTLAR 47-50

Elmurodova Nilufar Baxtiyorovna

SHARQ VA G'ARB UYG'ONISH DAVRI MADANIYATI: QIYOSIY TAHLIL 51-55

Нафиддинова Хосият Равшановна

БУХОРО ВОҲАСИ АҲОЛИСИ ОИЛАВИЙ МАРОСИМЛАРИ ТАРИХИГА ДОИР
МАЪЛУМОТЛАР 56-60

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Zhang Hongzhi, Wu Bo

RUMOR RESILIENCE: HOW BUSINESSES ECONOMICALLY RESPOND TO STOCHASTIC RUMOR
SPREAD 61-66

Ibrayimova Dilnoza Abdisheripovna

MINTAQADA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI ONLINE SAVDO MARKETINGINI
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI 67-72

Nayimov Shoxruh

PROBLEMS OF FORMATION AND MANAGEMENT OF COLLATERAL PORTFOLIO OF A
COMMERCIAL BANK 73-79

Maxkamov Navruzjon Tuxtamishovich

ISSUES OF APPLICATION OF QUALITY MANAGEMENT IN THE SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF ENTERPRISES AND ORGANIZATIONS FOR THE PURPOSES OF THE DEVELOPMENT STRATEGY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN 80-88

Рахматуллаев Беҳзод Рахматуллаевич

ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ УСТУВОР
МАСАЛАЛАРИ 89-95

Abdullayeva Zamira Muxtarovna

MEHNAT BOZORI TALABLARIGA OLIY TA'LIM XIZMATLARI MODELLARINI
MOSLASHTIRISH 96-102

Имомов Холмурод Норқулович, Шарипов Тўлқин Саидахмедович

ИҚТИСОДИЁТНИНГ ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШИШИ ШАРОИТИДА ДАВЛАТ-ХУСУСИЙ
ШЕРИКЧИЛИГИНИНГ ШАКЛЛАРИ, МОДЕЛЛАРИ ВА МЕХАНИЗМЛАРИ 103-114

Эргашев Ахмаджон Махмуджон ўғли

ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ ФАОЛИЯТИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ РИСКЛАРНИ АНИҚЛАШ ВА
БОШҚАРИШ МЕТОДОЛОГИЯСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ 115-122

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Imomova Nozimaxon Avazxonovna

JAMIYAT FAROVONLIGI TUSHUNCHASI VA UNING O'ZIGA XOS IJTIMOY-FALSAFIY
XUSUSIYATLARI 123-129

Qodirov Davronbek Hoshimovich

ABULQOSIM QUSHAYRIY VA UNING ILMIY FAOLIYATI 130-133

Jabborova Saodat Sattorovna

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING MA'NAVIY SALOHİYATNI YUKSALTIRISHDA QO'SHGAN
HISSASI 134-142

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Tuxtasinova Mahliyoхon Shavkatjon qizi

L.Z.BUDAGOV LUG'ATIDA ESKI O'ZBEKCHA SO'ZLARINING EKVIVALENTLAR YORDAMIDA
IZOHLANISHI 143-149

Narmuratov Zayniddin Radjabovich

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA TA'LIM VA ILM MAZMUNLI FRAZEMALARDA EKVIVALENTLIK
MASALASI 150-154

Urazaliyeva Mavluda Yangiboyevna

UZBEKCORPUS.UZ PLATORMASIDA MORFOLOGIK TAHLIL INTERFEYSI VA DASTURIY
TA'MINOTI 155-160

Mirzayeva Yelena Sa'dullaevna

O'ZBEK MENTALITETI VA AXBOROTNI IDROK ETISH 161-166

Alimjanova Shohsanam Azamat qizi

INGLIZ TILIDAGI KO'P MA'NOLI IBORALARNI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH

USULLARI	167-171
<i>Iskandarova Shamsiyabonu Ulug'jonovna</i>	
BADIIY ADABIYOTDA MUALLIF VA TARIXIY QAHRAMON O'RTASIDAGI G'OYAVIY BOG'LIQLIK MASALASI (Laila Lalamining "Mavrning hisoboti" asari tahlili asosida)	172-176
<i>Hamroqulova Marjona Nabijon qizi</i>	
"MAHBUB UL-QULUB" ASARIDAGI FRAZEMALARNING SEMANTIK-USLUBIY XUSUSIYATLARI	177-181

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

<i>Зулфикоров Шерзод Хуррамович</i>	
ҚОНУНЧИЛИК ПАЛАТАСИ ҚЎМИТА ВА КОМИССИЯЛАРИДА ДЕПУТАТЛАР ФАОЛИЯТИНИ ЯНАДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ	182-191
<i>Таллибаев Умиджон Шергазиевич</i>	
ОСОБЕННОСТИ ПРИВЛЕЧЕНИЯ К АДМИНИСТРАТИВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА ПРАВОНАРУШЕНИЯ В СФЕРЕ ИНФОРМАЦИИ.	192-199

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

<i>Iminakhunova Iroda Huseynovna</i>	
THE MOST IMPORTANT REQUIREMENTS THAT ENSURE EFFECTIVE PEDAGOGICAL CONTROL OF STUDENTS' SELF-EDUCATIONAL ACTIVITIES	200-206
<i>Usmanaliev Khusniddin</i>	
INTERCULTURAL COMPETENCE IN THE TEACHING PROCESS OF A FOREIGN LANGUAGE	207-219
<i>Madaminov Uktam Ataxanovich</i>	
ELEKTRON TA'LIM MUHITIDA FANLARNI MOBIL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISH METODIKASI	220-224
<i>Yuldasheva Dilfuza Qodirovna</i>	
TURIZM YO'NALISHI TALABALARIGA INGLIZ TILIDA SOHAVIY LEKSIKANI O'RGATISH USULLARI	225-229
<i>Tohirova Shohsanam Yunusovna</i>	
THE IMPORTANCE OF CASE TECHNOLOGY IN PRACTICAL ENGLISH CLASSES IN NON-PHILOLOGICAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS	230-236
<i>Nuriddinova Muyassar Muhiddinovna</i>	
ORGANIZING PHYSICAL EDUCATIONAL EVENTS WITH PRESCHOOL CHILDREN	237-242
<i>Raxmatova Mexrinovna Majitovna</i>	
YOSHLAR MA'NAVIY SALOHİYATINI YUKSALTIRISHDA INNOVATION TARG'IBOT TEXNOLOGIYALARINING SAMARADORLIGI	243-247
<i>Sheraliyev Odiljon</i>	
TALABALARNING DIGITAL KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	248-254

13.00.00- Педагогика фанлари

Sheraliyev Odiljon

Qo'qon Davlat Pedagogika Instituti tayanch doktoranti

E-mail: odilxonqdpi@gmail.com

TALABALARNING DIGITAL KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Rivojlanayotgan ijtimoiy sharoitlarni hisobga olgan holda, zamonaviy raqobatbardosh mutaxassis ma'lum darajadagi raqamli kompetentsiyaga ega bo'lishi kerak. Raqamli kompetentsiya sohasidagi ishlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, bu tushuncha kam o'rganilgan. Maqolada talabalarning raqamli kompetentsiyasini shakllantirishning pedagogik va psixologik xususiyatlari to'g'risida muallifning qarashlari keltirilgan, ushbu mavzu bo'yicha ishlar tahlil qilingan, tadqiqot metodologiyasi, talabalarning raqamli kompetentsiyasini rivojlantirishning nazariy shartlari berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli kompetentsiya, raqamli kompetentsiyani shakllantirish, oliy ma'lumot, jamiyatni raqamlashtirish, raqamli texnologiyalar, psixologik xususiyatlar, raqamlashtirishning pedagogik xususiyatlari

Sheraliyev Odiljon

Doctoral student of the Kokan State Pedagogical Institute

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF DEVELOPING THE DIGITAL COMPETENCE OF STUDENTS

Abstract. The development of modern society, expressed in the universal digitalization of all spheres of human activity, includes a change in the educational landscape, consisting in the transfer of many types of educational activities to the global Internet. Taking into account the emerging social conditions, a modern competitive specialist must have a certain level of digital competence. The analysis of works in the field of digital competence has shown that this concept is poorly understood. The article presents the author's vision of the pedagogical and psychological features of the formation of students' digital competence, analyzes the work on this topic, gives the research methodology, theoretical conditions for the development of students' digital competence.

Keywords: digital competence, formation of digital competence, higher education, digitalization of society, digital technologies, psychological features, pedagogical features of digitalization.

Шералиев Одилжон

Докторант Коканского государственного
педагогического института

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ФОРМИРОВАНИЯ ЦИФРОВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ

Аннотация. Развитие современного общества, выражающееся во всеобщей цифровизации всех сфер жизнедеятельности человека, включает в себя изменение образовательного ландшафта, заключающееся в переносе многих видов образовательной деятельности в глобальную сеть Интернет. С учетом формирующихся социальных условий, современный конкурентоспособный специалист должен обладать определённым уровнем цифровой компетентности. Анализ работ в области цифровой компетентности показал, что данное понятие является малоизученным. В статье представлено авторское видение педагогических и психологических особенностей формирования цифровой компетенции студентов, проанализированы работы по данной теме, даны методология исследования, теоретические условия развития цифровой компетенции студентов.

Ключевые слова: цифровая компетентность, формирование цифровой компетентности, высшее образование, цифровизация общества, цифровые технологии, психологические особенности, педагогические особенности цифровизации.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I6/SY2023N37>

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining IX bob 42-moddasida ta'kidlab o'tilganidek, "Hammaga ilmiy va texnik ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnik taraqqiyoti haqida qayg'uradi".[8]

Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarida digital kompetensiyaning rivojlanishi ularning psixologiyasida muayyan o'zgarishlarni yuzaga keltiradi, sermahsul didaktik materiallar yaratishni tezlashtirishga muhim psixologik asos yaratadi. Bu asos natijasida digital kompetensiyani rivojlantirish bir nechta psixologik xususiyatlar ta'sirini hisobga olishni talab etadi. Digital kompetensiyani rivojlantirish jarayoni talabaning intellektual faoliyati rivojlanishi bilan ham bog'liq. Intellektual ko'nikmalar o'zida: xotiraning rivoji; idrok etishning rivoji; tasavvurlarning rivoji; diqqatning rivojini aks ettiradi. [13]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). N.V.Nijegorodtseva "intellekt" tushunchasiga "shaxs xususiyati bo'lib, obyektiv borliqdagi predmet va hodisalarni ularning o'ziga xos aloqalari va qonuniyatlari bilan ongda aniq va chuqur aks ettiradigan qobiliyatdir" [9] deb ta'rif beradi.

Ta'limni axborotlashtirish sharoitida talabalarning yosh va rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quv jarayonida me'yor va nazorat muhim ahamiyatga ega. A.V.Minakov [10] axborotlashtirilgan ta'lim muhitining talabalarga ta'siri va u bilan o'zaro munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari tufayli yuzaga keladigan bir qator psixologik ko'rinishlarni aytib, raqamlashtirish muammolarini ta'kidlab, raqamli texnologiyalaridan foydalanishda zamonamizning psixolog va psixoterapevtlari duch keladigan salbiy tomonlarini keltiradi. Ular quyidagilar:

- charchoq va bezovtalik;
- kompyuterga qaramlik;
- kompyuter o'yinlariga individual, guruhli va rolli bog'lanib qolish;
- internetga qaramlik, xakerlik, qiziqish doirasining qisqarishi, kompyuterdan foydalanishda mukkasidan ketish, aqlning kam rivojlanishi, ijtimoiy muloqotning qashshoqligi va boshqalar.

Raqamlashtirish jarayonining shiddat bilan rivojlanishi talabalarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratish bilan bir qatorda, salbiy


oqibatlarni ham o'zida aks ettiradi. Jumladan, talabalarning asosiy vaqtini keraksiz axborotlarga sarflash; ijtimoiy tarmoqlardan keragidan ortiq foydalanish; kompyuterga qaramlik kabi yangi muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Shu jihatdan talabalar va raqamli texnologiyalarning o'zaro munosabatlarini psixologik, pedagogik va ijtimoiy jihatlarini o'rganish, raqamli texnologiyalaridan muvaffaqiyatli foydalanish usullarini izlash pedagogik-ilmiy tadqiqotlarning muhim vazifasi bo'lib qolmoqda.

Pedagog olimi Balina ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarning digital kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik jihatlariga e'tibor qaratib, bir qancha psixologik vaziyatlarni aniqlashtirib o'tgan: [1]

- shaxsiylashtirish, shaxs tomonidan kompyuterni "jonlantirish";
- kompyuter bilan "muloqot"ga bo'lgan ehtiyoj va bunday muloqot xususiyatlarining mavjudligi;
- kompyuterdan xavotirlanishning turli ko'rinishlari;
- insonning ichki dunyosiga ta'siri va buning oqibatida foydalanuvchilarda kognitiv va hissiy buzilishlar, kuchli psixologik jarohatlar.

I.N.Vasil'eva [2] tomonidan kompyuterdan xavotirlanishning mavjudligi kompyuter savodxonligini va unda ishlashga bo'lgan motivni sezilarli darajada qisqartirishi mumkinligini ko'rsatdi. Kompyuterda biror bir vazifani bajarganda tashvishga tushadigan insonlar odatda unga nisbatan salbiy munosabatda bo'ladi. Boshqa tomondan tadqiqotchilar insondagi salbiy his-tuyg'ular vazifasini iloji boricha ijobiy natija bilan yakunlashga intilib, faoliyatning rag'batlantirilishiga va muvaffaqiyatli o'sishga erishish mumkinligini ta'kidlaydilar.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda, talabalarda digital kompetensiyani rivojlantirishning psixolik xususiyatlari xotira, appertsepsiya, tasavvur, diqqat, ehtiyoj, motivatsiya, intilish va qaror qabul qilish rivoji mazkur jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi (1.1.3-rasmga qarang).



1.1.3- rasm. Talabalarda digital kompetensiyani rivojlantirishning psixologik xususiyatlari.

Appertsepsiya – talabaning har qanday jarayonni aniq va ongli idrok etishini anglatuvchi zamonaviy psixologik xususiyatidir. Appertsepsiya xususiyati tufayli talabalar o'zaro idrokining mazmuni bilan bir-birlaridan muayyan darajada taqqoslanadilar, ya'ni ular aynan bir xil narsani o'zining bilim darajasi, fikr doirasi, pozitsiyasi, dunyoqarashi va ijtimoiy

kelib chiqishiga asoslangan holda turlicha idrok qiladilar hamda aks ettiradilar. Appertseptsiya rivoji talabalarining axborot- kommunikativ kompetensiyalarini rivojlanishidagi shaxsiy tasavvurlari shakllanishiga olib keladi.

Talabalarda motivatsiya rivoji digital kompetensiyani rivojlantirishga ta'sir etuvchi asosiy psixologik xususiyatlardan biri hisoblanadi.

B.Xodjaev tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda "motivatsiya – motivlarning harakatlanish jarayoni, insonni asosiy faoliyatga undovchi motivlar yig'indisi. Motiv esa fransuzchadan tarjima qilinganda, undovchi kuch, sabab degan ma'noni bildiradi", deb ta'riflangan. [14]

Oliy ta'lim muassasalari talabalarida digital kompetensiyani rivojlantirishning psixologik xususiyatlari talabalarining kasbiy faoliyatlarini amalga oshirishlarida innovatsion g'oyalarga boy shaxs sifatida shakllanishlariga muhim turtki vazifasini bajaradi.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarida digital kompetensiyani rivojlantirish o'z navbatida pedagogdan innovatsion faoliyatni samarali amalga oshirishni talab etadi. Chunki bu soha chegara bilmas va cheklanmagan qobiliyatlar namunasini ifoda etadi.

Innovatsion faoliyat va innovatsion texnologiyalarning mazmuniga tayanib, interaktiv ta'lim asosida, pedagog rahbarligida olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayonida, soha talabalarining ijodiy salohiyati rivojlanib boradi va ularning intellektual-jismoniy faoliyati yanada yuksaladi. Bu jarayonni muvaffaqiyatli boshqarish uchun har bir pedagog talabalarining ilmiy-ijodiy salohiyatini oshirishda tarbiya jarayonining xususiyatlarini o'rganishi, yoshlarning mustaqil faoliyat turlarini bilishi va ularning ma'naviy ijodiy malakalarini shakllantirish manbalarini yaratishi hamda kasb egalarining intellektual ijodiy salohiyatini oshirish usullarini ishlab chiqishi zarur.

V.I.Slobadchikov fikricha, innovatsion faoliyat – pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg'a boshlovchi, taraqqiy ettiruvchi kuchdir. "Innovatsion faoliyat – bu yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy me'yorlarning mos kelmasligi, yohud amaliyotning yangi shakllanayotgan me'yorini mavjud me'yor bilan to'qnashuvi natijasida vujudga kelgan majmualar muammolari hal etishga qaratilgan faoliyatdir". [12]

"Pedagoglarni innovatsion faoliyatga tayyorlash muammosiga murojaat etish, jamiyatda innovatsion jarayonlar dinamikasining o'sib borishi natijasida vujudga keldi. Uning tahlili faqat fan va texnika erishgan zamonaviy yutuqlardan foydalanishni o'z ichiga olmasdan, balki yangiliklarni izlash, yaratish, moslashtirish, tatbiq etish va olingan natijalarni qayta tekshirish kabi jarayonlarni ham qamrab oladi", — deb ta'kidlaydi M.Jumaniyozova. [4]

R.Jo'raev va X.Ibragimovlarning fikricha, "Innovatsion faoliyat – pedagogning o'z faoliyatidan qoniqmasligidan kelib chiqadi. U pedagog tomonidan u yoki bu pedagogik vazifani hal qilishda qandaydir to'siqqa duch kelinib, uni muvaffaqiyatli hal etishga intilish asosida yuzaga keladi". [5]

Tadqiqotchi, olim V.A.Slastenin innovatsion faoliyatning tuzilishi ustida tadqiqot olib borgan va uni quyidagicha tuzilishga ega deb ko'rsatib o'tadi: "Innovatsion faoliyatning tuzilishi – ijodiy yondashuv, ijodiy faollik, yangilikni kiritishga texnologik va metodologik tayyorgarlik, yangicha fikrlash, muomala madaniyati. Innovatsion faoliyatning darajalari: reproduktiv, evristik, kreativ bo'lishi mumkin". [11]

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Innovatsion faoliyat istiqbolli maqsadlarni anglash orqali namoyon bo'ladigan jarayondir. Bu jarayon talabalarni kasbiy faoliyatga

tayyorlashda o'qitishning zamonaviy usul va uslublarini tatbiq etish va foydalanishni talab qiladi. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonida interfaol usullar va innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi, pedagog-xodimlarning zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari tomonidan uning vazifalari, rolini o'zgartiradi, pedagogik faoliyatining modernizatsiyalashuviga olib keladi.

Talabalarda digital kompetensiyani rivojlantirishda yana bir asosiy omil sifatida pedagogik xususiyatlar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur omillar psixologik xususiyatlarni ham o'zida qamrab oladi. Digital kompetensiyani rivojlantirishda talabalarning bo'lajak kasbiy faoliyatlariga oid bilim, ko'nikma va malakalarni mustaqil egallashlari, kasbiy faoliyatlarini tashkil etish va boshqarish uchun zamonaviy ta'lim tizimida pedagog faoliyatini modernizatsiyalash muhim o'rin tutadi.

Ijod jarayonini bosqichma-bosqich o'rganish natijasida inson ongining faqat o'ziga xos, fenomenal jihatlarini namoyon bo'ladi. Har bir ijod bosqichi murakkab jarayon bo'lib, u ijodkor insonning ehtiyojlari, qadriyatlarini, hissiyotlari va intellekti xususida axborot beradi.

Ijodiy faoliyat – yangi sahna asarlari yaratish, yangi qahramonlarni yaratish, original san'at asarini dunyoga keltirishdir. Shu bilan birga, bor asarning faqat kichik bir jihatiga o'zgarish kiritish, mustaqil qarorga kelish, shaxsiy xulosa chiqarish ham ijodiy faoliyat hisoblanadi. Shuning uchun ijodiy qobiliyatlar har bir insonga xos deyiladi. Ijodiy faoliyat natijasida yangi moddiy va ma'naviy qadriyatlar vujudga keladi. Ijod o'z mohiyati jihatidan tarixiy-madaniy hodisa bo'lib, shaxs va jarayon kabi psixologik aspektlarga ega. U shaxsda qobiliyatlar, motivlar, bilim va malakalar borligi tufayli yangiligi, noyobligi bilan ajralib turuvchi mahsulot yaratilishini ta'kidlaydi. Shaxsning bu xususiyatlarini o'rganish natijasida tasavvurning, intuitsiyaning, aqliy faollikning anglanmagan komponentlari, shuningdek, shaxsning o'zini anglashga, o'z yaratuvchilik imkoniyatlarini kengaytirishga bo'lgan ehtiyojlari ro'yobga chiqadi. Ijod madaniyatning qaysi sohasida qo'llansa (ishlab chiqarish, texnika, san'at, fan, siyosat, pedagogika va b.), ularning har birida ijod psixologiyasining o'ziga xosligini, shuningdek, ular orasida munosabat xarakterini aniqlashni talab etadi. [7]

Ijodiy jarayon:

- vazifa qo'yish, fikrni shakllantirish, fikrni amalga oshirishdan iborat;
- ijodkor shaxsi qobiliyatlar, aqliy xususiyatlar, temperament, yosh, xarakter va boshqalarga bog'liq;
- muhit va sharoit atrof-muhitni, jamoani, ijodiy faoliyat stimullari va to'siqlarini namoyon etadi.

Ma'lumki, har qanday tizim, jumladan, inson ichki (shaxsiy) ehtiyojlar va tashqi atrof-muhit talablari ta'siri ostida o'zgara boshlaydi, ya'ni rivojlanadi. [6]

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, pedagogik tizimda axborotga bo'lgan talab o'quv jarayoni faolligining ko'rsatkichidir, ammo axborot oqimini nazorat qilish va tahlil qilish pedagogik jarayonni boshqarish samaradorligini belgilaydi. [3]


Tadqiqotchilar Yu.A.Astafeva, O.A.Zaxarova, N.A.Kachalova, A.A.Melikhova va I.G.Smirnovlar digital kompetensiyani tizimli komponentlarning birligi, ya'ni "axborot bilan ishlash usullarini o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan integral shaxs sifati", deb hisoblashdi.

Pedagogik-psixologik adabiyotlarni tahlil qilish va digital kompetensiya tuzilmasi hamda uning tarkibiy asoslariga tayangan holda oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv-tarbiya jarayonida talabalarning digital kompetentligini muvaffaqiyatli rivojlantirishning nazariy

shart-sharoitlarini aniqlashtirish maqsadga muvofiq, degan xulosaga kelindi (1.1.4-rasmga qarang).

Psixologik va pedagogik shart-sharoitlar o'z-o'ziga tanqidiy munosabatda bo'lish va motivatsion qismlarni o'z ichiga oladi hamda talabalarning o'quv faoliyati, motivatsion sohasini aks ettirishga qaratilgan ta'limiy vazifalarini bajarish tajribasini o'rganishni nazarda tutadi.

Tashkiliy va uslubiy shart-sharoitlar – bilim va texnologik komponentlarni o'z ichiga oladi hamda talabalarning digital kompetensiyani egallash jarayonida o'quv-bilish va kognitiv vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga yordam beradigan, o'quv materiallarini mantiqiy ravishda tuzish va taqdim etishni o'z ichiga oladi.



1.1.4-rasm. Talabalarning digital kompetensiyani rivojlantirishning nazariy shart-sharoitlari.

Xulosa va takliflar. Raqamlashtirish inson faoliyatining barcha sohalariga, jumladan, ta'lim sohasiga ta'sir ko'rsatdi, ta'lim jarayonining tabiati va dinamikasini o'zgartirdi. Axborotning ortib borishi, yangi axborot-texnologik va kommunikatsiya sharoitlari paydo bo'lishi kelajak mutaxassislarning axborot va kommunikatsiya salohiyatini shakllantirish muammosini ro'yobga chiqardi.

Shunday qilib, bo'lajak mutaxassislarning axborot va kommunikatsiya salohiyatini shakllantirish va pedagogik jarayonning axborot-kommunikatsiya xarakterining to'g'ridan-to'g'ri aloqasi to'g'risida xulosa qilishimiz mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References

1. Балина Н.Т. Психологи-педагогические аспекты компьютерного обучения. Вестник Таганрогского института управления и экономике. №1/2009. – Стр. 105-108. <https://cyberleninka.ru/article/n/psihologo-pedagogicheskie-aspekty-kompyuternogo-obucheniya>.
2. Васильева И.Н., Осипова Е.М., Петрова Н.Н. Психологические аспекты применения информационных технологий // Вопросы психологии, 2002. – № 3. – С. 31-33.
3. Дуранов М.Е., Жернов В.И. Информационно-коммуникативный подход в обучении и организации педагогического процесса. – Магнитогорск: Изд-во МаГУ, 2001. – 25-37 с.
4. Жуманиёзова М.Т. Малака ошириш жараёнида ўқитувчиларни инновацион фаолиятга тайёрлашнинг педагогик асослари (тарих фани ўқитувчилари мисолида): пед. фан. номзоди ... дисс. – Т.: 2007. – 176 б.
5. Жўраев Р.Х., Ибрагимов Х.И. Педагогик жамоанинг инновацион фаолияти // Халқ таълими. – Т., 2004. – №2 – 5 б.
6. Иванов Г.И. Основные мотивы творческой деятельности человека (тезисы). – Ангарск, 1999. – 44 с.
7. Лук А.Н. Психология творчества. – М.: 1978. – 93 с.
8. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 488 б.
9. Нижегородцева Н.В. Проблемы системогенеза учебной деятельности. – Ярославль: Изд-во ЯГПУ, 2016. – (190) 420 с.
10. Скворцова Л. Психологические проблемы использования компьютерных технологий. 1 августа 2010 г. <http://www/e-learning.by/Article/psychProblems/ELearning.html>.
11. Слостенин В.А., Подымова Л.С. Педагогика – инновационная деятельность. – М.: Магистр, 1997. – 146 с.
12. Слободчиков В.И. Инновационные образования. // Школьные технологии. – Москва, 2005. - №2 – С.4.
13. Тайлақов Н.И. Узлуксиз таълим тизими учун информатикадан ўқув адабиётлари янги авлодини яратишнинг илмий педагогик асослари: пед. фан.док. ... дис. – Тошкент, 2006. – 359 б.
14. Ходжаев Б.Х. Умумий педагогика. Дарслик. – Т.: «Сано-стандарт» нашриёти, 2017. – 21 б.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 5/6 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).